

## RASMIY NUTQIY MULOQOTNING DUNYO TILSHUNOSLIGIDA O'RGANILGANLIK DARAJASI

N. Rashidova <sup>1</sup>

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada rasmiy muloqot turining hozirgi jadal rivojlanayotgan zamonda dunyo miqyosidagi jamiyatga sezilarli ta'siri haqida turli nazariy qarashlar keltirilgan. Shu bilan bir qatorda, rasmiy nutqiy muloqotning leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari haqidagi fikrlar ham ma'qolada o'z o'rnini topgan.

*Kalit so'zlar:* rasmiy nutqiy muloqot, rasmiy-idoraviy uslub, rasmiy nutq xususiyatlari, rasmiy uslubda etiket qoidasi.

doi: <https://doi.org/10.2024/jbfm5493>

Dunyo tilshunosligida nutq va nutq usublariga, xususan rasmiy uslubni o'rganishga bo'lgan intilish so'nggi yillarda sezilarli darajada ortganini kuzatishimiz mumkin. Bir qator olimlar rasmiy nutqning funksional-stilistik, pragma-semantik va janr xususiyatlarini ochib berishgan. O'zbek tilshunosligida E.M.Gurtuyeva, D.A.Babaxanova, D.S.Kulmamatov tadqiqotlarida rasmiy uslubning vazifaviy xususiyatlari, janriy xususiyatlari, o'qitilishi masalasi yoritildi<sup>2</sup>. Keyinchalik rasmiy-idoraviy, diplomatik, qonunchilik uslublarining o'ziga xos xususiyatlari bir-biridan farqlandi, ularning terminologik tarkibi o'rganildi, takomili, mustaqillik davrida rasmiy uslubda yuz bergan leksik, morfologik, sintaktik o'zgarishlar tahlil qilindi<sup>3</sup>.

Ko'rinib turganidek, rasmiy nutq xususiyatlari, uning tarkibiy qismi bo'lmish maxsus terminlar va boshqa leksik birliklar hamda ularning struktur-funksional jihatlari ma'lum darajada o'rganilgan bo'lsada, rasmiy muloqot matnlarida tomonlarning maqsad va harakatini ifodalashda konstativ, predikativ, komissiv, aknolejment, direktiv va verdiktiv akt tiplari, rasmiy muloqot matnlarida etiket masalasi maxsus o'rganilgan emas. Mazkur holat o'zbek tilshunosligida yuqorida sanab o'tilgan masalalar bo'yicha bir qator izlanishlar olib borilishi kerakligini ko'rsatadi.

Rasmiy nutqiy muloqot, avvalo, rasmiy shaxslar, tashkilotlar, ular nomidan ish ko'ruvchi vakillar rasmiy munosabatlarini aks ettiruvchi muloqot turidir.<sup>4</sup>

<sup>1</sup> *Rashidova Nargiza Normurod qizi, Samarqand davlat chet tillar instituti katta o'qituvchisi*

<sup>2</sup> Гуртуева Э.М. Обучение студентов национальных групп вузов официально-деловому стилю речи (на материале сельскохозяйственного производства): Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Ташкент, 1986. – 19 с.; Бабаханова Д.А. Официально-деловой стиль современного узбекского литературного языка: Автореф. канд. филол. наук. – Ташкент, 1987; Кулмаматов Д.С. Среднеазиатские дела посольского приказа как источник для истории русского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1995. – 37 с.

<sup>3</sup> Мухитдинова Х., Абдуллаева Н. Расмий услубнинг дипломатик ёзишмалар тури. – Тошкент, 1997. – 56 б.; Кўчимов Ш. Ўзбекистон Республикаси қонунларининг тили: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1996; Саидов А., Кўчимов Ш. Қонунчилик техникаси асослари – Тошкент: Адолат, 2001; Кўчимов Ш. Дипломатик тил асослари. – Тошкент, 2002; Омонов Қ. Туркий расмий услубнинг юзага келиши ва такомилли (илк ва ўрта асрлар): Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – 73 б.; Лутфуллаева Д. Мустақиллик даври расмий-идоравий иш услуби тараққиёти. – Тошкент: Нодирабегим нашриёти, 2020. – 95 б.

<sup>4</sup> Narxodjayeva X.Sh. Rasmiy muloqot matnining lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi: Filol. fan. dok. ... diss. avtoref. – Qarshi, 2023, -ii-bet

Har qanday muloqot turida bo'lgani kabi, rasmiy muloqotda ham ikki tomon ya'ni so'zlovchi va tinglovchi tomon bo'ladi. Boshqa qilib aytganda, so'zlovchi axborot, ma'lumotlarning uzatuvchi bo'lsa, tinglovchi o'sha ma'lumotlarning qabul qiluvchisi hisoblanadi.

X.Sh. Narxodjayeva o'zining "Rasmiy muloqot matnining lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi" nomli ilmiy dissertatsiyasida har qanday nutqiy muloqotda axborot uzatuvchi, axborotni qabul qiluvchi va unga munosabat bildiruvchi hamda axborotning o'zi ishtirok etishini ta'kidlab o'tgan.<sup>1</sup>

Rasmiy nutq deganda rasmiy kishilar, xalqaro tashkilotlar, davlat vakillari, turli diplomatik korpuslar va ular nomidan ish ko'ruvchi vakillar munosabatlarini ifodalashdir.

Rasmiy nutqiy muloqot rasmiy nutqiy aktlar orqali yuzaga chiquvchi, rasmiy muhitda amalga oshuvchi, asosiy hollarda jamiyatda turli kasbiy rollarni bajarayotgan kishilar o'rtasida ularning o'zaro munosabatlaridagi rasmiylikni aks ettiruvchi va uni tartibga soluvchi muloqot turidir. Tilshunoslikda rasmiy nutqiy muloqot tushunchasi rasmiy shaxs maqomidagi kishilar o'rtasida, ular tomonidan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, diniy masalalarda amalga oshiriladigan axborot-ma'lumot almashinuv, kelishuv, qaror, qonun qabul qilish, diplomatik munosabatlarni o'rnatishda qo'llaniladigan muloqot turiga nisbatan ishlatiladi<sup>2</sup>.

I.A.Sternin ta'rifiga ko'ra, "Rasmiy muloqot – bu rasmiy rollarni bajaruvchi kishilarning ishbilarmonlik faoliyatidagi muloqotidir"<sup>3</sup>.

Rasmiy nutq masalasiga yuridik tomondan yondashgan olimlarimizdan S.Karimov, X.Mamatova va I.Bo'riyev hamkorligida yaratilgan "Yuristning nutq madaniyati" nomli o'quv qo'llanmasida huquqshunos kadrlarning til tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratilishini, har bir talaba maxsus nutqiy tayyorgarlikdan o'tishi kerakligi, yuridik til sirlarini chib berish, qonun-qoidalarni, nutqiy madaniyat ko'nikmalarini ta'kidlab o'tishgan.<sup>4</sup>

Nutqning rasmiy-idoraviy uslubi haqida o'zbek tilshunos olimlaridan N.Maxmudov, A.Rafiyev, I.Yo'ldoshevlar tomonidan yaratilgan "Davlat tilida ish yuritish" nomli darslik qo'llanmasida rasmiy uslubning jamiyatdagi hamda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardagi o'рни haqida fikrlar bildirgan.

Darhaqiqat, rasmiy uslub ko'proq o'zining aniqligi, fikrlarni qisqa va lo'nda ifoda etishi bilan xarakterlidir. Bundan tashqari, rasmiy uslub ma'lum grammatik hamda sintaktik normalarga amal qilishi bilan ham boshqa uslublardan ajralib turadi.

Jahon tilshunosligida hozirga qadar bir qator tilshunos olimlar rasmiy uslubni turli me'yoriy tomonlardan o'rganib kelishgan. Jumladan, rus olimlaridan N.M.Tatarnikova o'zining ilmiy nomzodlik dissertatsiyasida rasmiy nutqning birlamchi va ikkilamchi janrlarida koordinatsiya masalalariga o'z e'tiborini qaratgan.<sup>5</sup>

Shu bilan bir qatorda, yana bir rus tadqiqodchisi T.V.Anasimova o'z tadqiqotlarida rasmiy nutqning tipologik janrlarini asoslab bergan. U o'zining "Типология жанров деловой речи" (риторический аспект) nomli ilmiy dissertatsiyasida ma'muriy ritorikaning shaxsiy ritorika sifatidagi maqomini uning janrlari tizimini o'rganish orqali aniqlashni maqsad qilib olgan.<sup>6</sup>

<sup>1</sup> Narxodjayeva X.Sh. Rasmiy muloqot matnining lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi: Filol. fan. dok. ... diss. avtoref. – Qarshi.2023.-12-bet

<sup>2</sup> Narxodjayeva X.Sh. Rasmiy muloqot matnining lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi: Filol. fan. dok. ... diss. avtoref. – Qarshi.2023.-12-bet

<sup>3</sup> Стернин И.А. Деловое общение. – Воронеж: Родная речь, 2009. – С. 160.

<sup>4</sup> Каримов С, Маматов Х, Бўриев И. Юристинг нутқ маданияти. Ўқув қўлланма- Тошкент: "Зарқалам нашриёти", 2004.-130б.

<sup>5</sup> Татарникова Н.М. Координация первичного и вторичного речевых жанров в официально-деловом стиле речи (на примере вопроса и протокола вопроса): Дисс. ... канд. филол. наук. – Иркутск, 2004. – 196 с.

<sup>6</sup> Анисимова Т.В. Типология жанров деловой речи: риторический аспект: Дисс. ... д-ра филол. наук. – Краснодар, 2000. – 417 с

Bundan tashqari, I.N.Puchkova ilmiy ishining maqsadi zamonaviy ingliz tilining rasmiy biznes uslubidagi motivlarning semantik-pragmatik va rasmiy o'zgarishi xususiyatlarini ko'rsatishdir.<sup>1</sup>

Ko'rinib turibdiki, rus olimlari rasmiy uslub va ushbu uslub bilan bog'liq masalalarga turli tomonlardan yondashib, uning og'zaki va yorma turlaridagi me'yor-normalarini va xususiyatlarini keng ko'lamda tushuntirib berishga harakat qilishgan va bunga erishgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Rasmiy uslub va rasmiy yozma nutq bilan bog'liq masalalarning arxitektonik va tipologik xususiyatlarini, ushbu matnlarning leksik va leksik-grammatik xususiyatlarini tahlil qilish, ingliz tilidagi rasmiy xarakterga ega turli janrlari matnlarining pragmatik jihatlarini tahlil qilish va pragmatik tamoyillarni amalga oshirish yo'llarini aniqlash, ish yuritish kommunikatsiyalari samaradorligiga ta'sir etuvchi ekstralingvistik omillarni tahlil qilish masalalari bilan I.V.Drabkina o'z ilmiy izlanishlarida shug'ullangan.<sup>2</sup>

Rasmiy uslubning boshqa uslublardan eng katta farqli jihati, shu uning etiket qoidalariga doimo rioya etishidadir. Inson o'zinini jamiyatda tutish qobiliyati - muaffaqiyatga erishish shartlaridan biridir.

Deyl Karnegi yozganidek "Inson dunyo bilan to'rt xil usul orqali muloqot qilish imkoniyati ega. Bizni quyidagi to'rt narsaga qarab baholashadi va atriflashadi: amallarimizga, tashqi ko'rinishimizga, nima gapirishimizga hamda bu qay tarzda yetkazishimizga qarab"<sup>3</sup>.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib umumlashtirilsa, rasmiy uslubni o'rganishda uning me'yorlari, o'ziga xos xususiyatlari bilan birgalikda etiket masalasini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Zero, rasmiy xarakterdagi nutq va matnlarda aynan yuqorida ta'kidlangan normalarga amal qilishda etiket qoidalariga rioya qilmaslik kutilgan natijalarga olib kelmaydi.

<sup>1</sup> Пучкова И.Н. Вариативность выражения побуждения в официально-деловом стиле: на материале английского языка: Дисс. ... к-та филол. наук. – 2002. – 235 с

<sup>2</sup> Драбкина И.В. Прагмалингвистические аспекты письменного делового общения: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Самара 2001. – 47 с.

<sup>3</sup> Карнеги Д. Как выработать уверенность в себе и влиять на людей, выступая публично; Как завоевывать друзей и оказывать влияние на людей; Как перестать беспокоиться и начать жить. 5-е изд. Минск: Попурри, 2005. С. 187.